

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ILXAMOVA BIBINUR PO‘LATJON QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(Bolalar folklori fani misolida)**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical science**

**Ilxamova Bibinur Po'latjon qizi**

Акмеологик yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Bolalar folklori fani misolida) .....3

**Илхамова Бибинур Пулатжон кизи**

Совершенствование методики развития исследовательской компетентности студентов на основе акмеологического подхода (на примере дисциплины Детский фольклор).....23

**Ilkhamova Bibinur Pulatjon kizi**

Improving the methodology for developing students' research competence based on an acmeological approach (on the example of Children's Folklore course).....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of**

**publications.....50**

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ILXAMOVA BIBINUR PO‘LATJON QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(Bolalar folklori fani misolida)**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

## Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10043 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzfi.uz](http://www.uzfi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xodjaniyazov Sardor Umarovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Matchonov Safo Murodovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Soatova Nodira Isomiddinovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq  
davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alfraganus university huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yuqori Qoraqamish ko'chasi 2a-uy.) Tel.: (+99878) 122-75-57; e-mail: [alfraganusuniversity@gmail.com](mailto:alfraganusuniversity@gmail.com).

Dissertatsiya bilan Alfraganus university Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Tiklanish MFY, Yuqori, Qoraqamish st 2a-uy) Tel.: (+99878) 122-75-57.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.I. Botirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d. (DSc),  
professor

**M.D. Omonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

**M.F. Qurbonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida sodir bo'layotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlar sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, dinamiklik va kelajakka yo'naltirilganlik kabi tamoyillarga tayanmoqda. Zamonaviy davlatlar va jamiyatlar o'z taraqqiyot strategiyasida faqat tor mutaxassislik doirasida emas, balki tahliliy fikrlash, izlanish, dalillash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi ko'p tarmoqli bilim, ko'nikma va malakalarga ega kompetentli mutaxassislarni tayyorlashni ustuvor deb bilmoqda. Bugungi mehnat bozori o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, ijodkor, mustaqil fikrlovchi, dalillarga asoslangan qaror qabul qiluvchi, jismonan sog'lom va ma'naviy barkamol mutaxassislarni talab qilmoqda. Bunday kadrlar nafaqat mavjud bilimlarni qo'llay olishi, balki yangi g'oyalarni ishlab chiqishi, ularni amaliyotga tatbiq etishi va o'z kasbiy yo'nalishini dinamik tarzda kengaytirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Dunyoning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlarida ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, shaxsning o'zini anglash va mustaqil o'rganish salohiyatini oshirish, talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini izlanish va dalillash faoliyati orqali ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yondashuvda o'qitish jarayoni bilim berishdan ko'ra o'rganishni o'rgatishga, talaba esa passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchi-subyektga aylanishi lozim. Ta'limni insonparvarlashtirish va kompetensiyaviylashtirishning zamonaviy tendensiyalari ta'lim jarayonida ilmiy fikrlash, mantiqiy tahlil, refleksiya va dalillash madaniyatini shakllantirishni talab qilmoqda. Bu esa akmeologik yondashuv asosida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish orqali oliy ta'limda "o'qitish"dan "izlanish"ga o'tishning samarali modelini taklif etishning muhimligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda oliy ta'lim tizimini tubdan yangilash, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish talablariga mos kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz ta'lim taraqqiyotida "ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, kreativ, mantiqiy mushohada, madaniyatlararo muvaffaqiyatli muloqot qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash, ularda intellectual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish"<sup>1</sup> yangi Renessans

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kompetensiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 08.10.2019.

poydevorini qurishning strategik vazifalari sifatida qayd etilgan. Bu borada talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 19-martdagi PQ-5047-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari"ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Talaba-yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, ijodiy salohiyati va tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari mamlakatimizda qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, S.Annamuratova, U. Aleuov, F.A. Berdibekova, D.S. Otaboyeva, D.A.Yo'ldosheva, S.R.Muxammadova, M.A.Bayzakova, S.U.Xodjaniyazov, R.Tillayevalar<sup>2</sup>ning ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan N.M.Amosov, V.A.Ponomaryev, I.A.Lavricheva, E.N.Vayner, M.Yu.Grezneva, V.V.Kojanov, V.Chaytsevalar<sup>3</sup> tomonidan shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini baholash va o'z faoliyatini refleksiya qilish kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqilgan. Bu tadqiqotlarda, ayniqsa, talabalarning ilmiy dunyoqarashini, izlanish motivatsiyasini va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan.

Xorijlik Irena Shcherban, Sarah A.Marrs, Martina M.Echtenbruck, Carlos Enrique George Reyes<sup>4</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida akmeologik rivojlanish nazariyasi va inson faoliyatining eng yuqori samaradorlik bosqichlari o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida shaxsning kasbiy va intellektual

---

<sup>2</sup> S.Annamuratova Ilmiy axborotnoma. Pedagogika. 2018 yil, 2 son.

<sup>3</sup> N. M. Amosov, Modeling of Thinking and the Mind 10.1007/978-1-349-00640-3 (Macmillan Education republishing), I.A.Lavricheva, Yu.V.Kuzemko, E.V.Trushechkina "Физическая культура студентов специальной медицинской группы в условиях ограничения жизнедеятельности" Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. (2022) <https://doi.org/10.24412/2305-8404-2022-9-17-27>., Lavricheva, I. A. (2007). Student health in the educational process.

<sup>4</sup> I. Yu. Shcherban "European Experience of Training of Future Teachers of Foreign Languages: Findings and Prospects for Ukraine" *Bulletin of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan* Vol. 4, No. 386 (2020), pp. 225–234.

kamolotiga erishish mexanizmlari hamda bu jarayonda ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'рни keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga doir pedagogik mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Hozirgi kunga qadar oliy ta'lim tizimida ushbu kompetensiyani akmeologik rivojlanish kontekstida shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Shu bois, mazkur masala o'zining ilmiy yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017–2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini bolalar folklori fani misolida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir o'quv jarayoni mexanizmlarini loyihalash va samaradorligini tajriba-sinovda empirik tekshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga doir pedagogik-psixologik imkoniyatlarni aniqlashtirish;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik yondashuvga asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

**Tadqiqotning obykti** sifatida akmeologik yondashuv orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini bolalar folklori fani misolida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Urganch davlat pedagogika institutidan 108 nafar talaba, Alfraganus universitetidan 138 nafar talaba hamda Nukus davlat pedagogika institutidan 162 nafar talaba, jami 408 nafar talaba ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** akmeologik yondashuv orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, analiz va sintez metodlari, anketa va so'rovnomalar, test uslubi hamda olingan natijalarni matematik statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga oid pedagogik-psixologik imkoniyatlar akmeologik modelning maqsad, jarayon, natija, motivatsiya, o'zini o'zi boshqarish, baholash kabi ichki va tashqi omillarining real o'quv muhitidagi o'rnini belgilash orqali aniqlashtirilgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi shaxsiylashtirish, hamkorlik, o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya, mustaqil faoliyat yuritish tamoyillarini transformativ o'rganish jarayoniga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik yondashuvga asoslangan metodik ta'minot izlanish (searching skills), tahlil qilish (analytical skills), dalil keltirish (argumentative skills), mustaqil xulosa chiqarish (conclusive skills) ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi bibliografiya tuzish, ilmiy esse, prezentatsiya, portfolio, maqola, dala ekspeditsiyasi, esse, kundalik, feedback sessiya, tanqidiy hisobot kabi o'quv topshiriqlarini intensiv qo'llash orqali takomillashtirilgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi real muammolarni hal qilish, hayotiy vaziyat bilan bog'lash, faoliyatni baholash, individual yo'naltirishga ta'sir ko'rsatuvchi muammoli loyiha, portfel, kontekstli o'qitish, keys-stadi, refleksiv ta'lim, mentorlik, dizayn fikrlash metodlarini faol kiritish orqali takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini bolalar folklori fani misolida rivojlantirishga doir "Neyropedagogika" darsligi yaratilgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga doir metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'quv-metodik majmua ishlab chiqilgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini bolalar folklori fani misolida rivojlantirish bo'yicha "Bolalar adabiyoti", "Bolalar folklori" fanlari dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati akmeologik yondashuv orqali talabalarning tadqiqotchilik

kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik modelini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etishning didaktik vositalari aniqlangani; umumkasbiy va psixologik-pedagogik fanlar mazmunini tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan tarzda takomillashtirish imkoniyatlari belgilangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga doir maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgani, pre-post dizayn asosida tajriba-sinovdan o'tkazilgani; tadqiqot materiallaridan umumkasbiy va psixologik-pedagogik o'quv kurslari uchun ma'ruzalar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalar asosida:

talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga oid pedagogik-psixologik imkoniyatlar akmeologik modelning maqsad, jarayon, natija, motivatsiya, o'zini o'zi boshqarish, baholash kabi ichki va tashqi omillarining real o'quv muhitidagi o'rnini belgilashga doir taklif va tavsiyalar "Neyropedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-buyrug'i). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning ilmiy-tadqiqotga qiziqishini kuchaytirish hamda ilmiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini yuksaltirish imkoniyatlari ortgan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi shaxsiylashtirish, hamkorlik, o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya, mustaqil faoliyat yuritish tamoyillarini transformativ o'rganish jarayoniga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirishga doir xulosalardan "O'zbekiston 1" telekanalining "Ixtirochi yoshlar" nomli ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvni tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 23-oktabrdagi 05-09-1664-ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko'rsatuvning efirga uzatilishi tadqiqot natijalarini ommalashtirish, ularning respublika miqyosida tarqalishi va amaliyotchi o'qituvchilarga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etgan;

talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik yondashuvga asoslangan metodik ta'minot izlanish (searching skills), tahlil qilish (analytical skills), dalil keltirish (argumentative skills), mustaqil xulosa chiqarish (conclusive skills) ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi bibliografiya tuzish, ilmiy esse, prezentatsiya, portfolio, maqola, dala ekspeditsiyasi, esse, kundalik, feedback sessiya, tanqidiy hisobot kabi o'quv topshiriqlarini intensiv qo'llashga oid ilmiy-nazariy qarashlar va metodik tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan IL-402104155-raqamli amaliy loyhasini bajarishda foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat

universitetining 2025-yil 29-oktabrdagi 02-192/1-ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilarining ilmiy izlanish faoliyati samaradorligi ortishi, tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, manbashunoslik tahlilini amalga oshirish, elektron platforma uchun ilmiy kontent yaratish jarayoni sifat jihatdan yaxshilangan;

akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi real muammolarni hal qilish, hayotiy vaziyat bilan bog'lash, faoliyatni baholash, individual yo'naltirishga ta'sir ko'rsatuvchi muammoli loyiha, portfel, kontekstli o'qitish, keys-stadi, reflektiv ta'lim, mentorlik, dizayn fikrlash metodlarini faol kiritish orqali takomillashtirishga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan IL-402104155-raqamli amaliy loyiha doirasidagi "Haft shuaro" majmuasini o'rganish orqali XIX asr Xorazm vohasining milliy-ma'naviy merosini tadqiq qilish va uning o'zbek, rus hamda ingliz tillaridagi elektron ilovasini yaratishda foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yil 29-oktabrdagi 02-192/1-ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning tadqiqot ishlarini olib borishga bo'lgan motivatsiyasi, tashabbuskorligi va o'z imkoniyatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 1ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 122 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda tadqiqotchilik kompetensiyasining mohiyati va uning zamonaviy ta'limdagi dolzarbligi, bo'lajak pedagoglarda

ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik tamoyillari hamda bu jarayonda akmeologik yondashuvning tutgan o'rnini yoritilgan. Bobda talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligini oshirish, akmeologik yondashuvning shaxs kasbiy va intellektual kamolotini ta'minlovchi nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida akmeologik yondashuvni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning samarali mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Globalashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalar rivojining jadal sur'atlari zamonaviy ta'lim tizimiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda har qanday davlatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyoti ko'p jihatdan uning ilmiy salohiyatiga, ya'ni intellektual resurslar va kadrlar sifati, xususan, tadqiqot olib borishga qodir, zamonaviy tafakkurga ega mutaxassislar tayyorlash tizimining mukammalligiga bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'limda nafaqat nazariy bilim berish, balki talabalarni mustaqil izlanish, tahliliy fikrlash va ilmiy muammolarni hal qilishga yo'naltirish zaruratini tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda "*tadqiqotchilik kompetensiyasi*" tushunchasi ta'lim jarayonida muhim metodologik kategoriya sifatida e'tirof etilmoqda.

A.V.Xutorskoy ta'kidlaganidek, "kompetensiyalar orasida aynan tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshira olishga doir kompetensiya – shaxsning intellektual mustaqilligini, yangi bilimlarni mustaqil ishlab chiqish qobiliyatini shakllantiradi". Bu esa uni zamonaviy ta'limning ustuvor maqsadlaridan biriga aylantiradi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi pedagogik kasbining asosiy tarkibiy qismidir. Chunki pedagogik – bu doimiy yangilanib boruvchi kasb. Undan ilmiy-analitik yondashuv, didaktik yangiliklarni tahlil qilish va o'z amaliyotiga tatbiq etish, fan yutuqlarini o'zlashtirib, zamonaviy metodlarni yaratish talab etiladi. V.V.Serikovning fikricha, "pedagogik jarayonni loyihalash va boshqarish faqatgina metodik bilimlar bilan emas, balki ilmiy tadqiqot olib borish, ilmiy tahlil asosida qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan bog'liqdir"<sup>5</sup>. Bu esa bo'lajak pedagogni tayyorlash jarayonida uning o'z kasbini faqat amaliy emas, balki ilmiy yondashuv asosida anglay olishi kerakligiga e'tibor berishni taqozo etadi.

Akmeologiya o'z mohiyatiga ko'ra, "*self-actualization*" va "*transformative learning*" tushunchalariga yaqin turadi. Abraham Maslou tomonidan ilgari surilgan *shaxsiy kamolotga erishish* (self-actualization) nazariyasi, shuningdek Jack Mezirow tomonidan ishlab chiqilgan *transformativ o'rganish* (transformative learning) yondashuvi akmeologiyaning zamonaviy ta'limdagi o'rnini global kontekstda tushuntiradi. Transformativ o'rganish shaxsni o'zining hayotiy tajribasini qayta tahlil qilish va yangi ma'nolar ishlab chiqishga undaydi. Bu aynan akmeologik

---

<sup>5</sup> Сериков В.В. Образование и личность: теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Логос, 2002. – 7 с.

yondashuvning reflektivlik va o'z-o'zini anglash tamoyillariga mos tushadi.

Akmeologik yondashuv ta'lim muhitida ijodiy muhitni yaratishga katta urg'u beradi. Bunday muhitda talabalar tajriba qilishdan qo'rqmaydi, xatoni o'sish vositasi sifatida ko'radi, mustaqil fikr bildiradi va yangilik yaratishga intiladi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), keys-stadi (Case-study), dizayn fikrlash (Design Thinking) kabi metodlar akmeologik yondashuvga mos keladi va ijodiy salohiyatni oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish jarayonining pedagogik mazmuni, shakli, usul va vositalari yoritilgan. Mazkur jarayon talabalarda mustaqil izlanish va ilmiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'limning roli, akmeologik yondashuv orqali shaxsning ilmiy va kasbiy rivojlanish cho'qqisiga erishishi hamda tadqiqotchilik faoliyatini qadriyat sifatida anglash imkoniyatlarini oshirishi tahlil qilingan. Bobda talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik model ishlab chiqilib, uning nazariy asoslari, tarkibiy qismlari (bilim, ko'nikma, ilmiy-tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuv) hamda amaliy qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, “Bolalar folklori” fanini o'qitish jarayonida talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari, seminar va loyiha mashg'ulotlari, mustaqil izlanish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning pedagogik strategiyalari ham o'z ifodasini topgan.

Oliy ta'lim amaliyotida tadqiqotchilik kompetensiyasi aksariyat hollarda oddiy kurs ishlari yoki diplom ishini bajarish bilan cheklanib qoladi. Ammo zamonaviy yondashuvlar, xususan, akmeologik yondashuv, bu kompetensiyani rivojlantirishga yanada chuqur va tizimli qarashni talab etadi. Akmeologiya insonning o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarish, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanish cho'qqisiga – “akme”ga erishish yo'llarini o'rganadi. Shu bois, tadqiqotchilik kompetensiyasini akmeologik yondashuv asosida shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-metodik tizimini ishlab chiqish bugungi ta'limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, Jennifer A. Moon<sup>6</sup>) refleksiya ta'lim jarayonining asosiy qismi sifatida qaraladi, ayniqsa tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda. Refleksiv kundaliklar, esselar, portfoliolar, tanqidiy hisobotlar talabani faqat bilimni ko'chirishga emas, balki uni qayta yaratishga, shaxsiy tajriba orqali o'rganishga undaydi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – o'z-o'zini o'qitish (self-directed learning) va o'z-o'zini boshqargan holda o'qish (self-regulated learning) modellari

---

<sup>6</sup> Moon, Jennifer A. A handbook of reflective and experiential learning: Theory and practice. – Routledge, 2013.

rivojlanishidir. B.J. Zimmerman, P. Pintrich<sup>7</sup>lar tomonidan talabalar ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish xususiyatlarini chuqur o'rganilgan.

B.J. Zimmerman o'z nazariyasida SRLni uch bosqichli jarayon sifatida ifodalaydi:

1. Rejalashtirish – talabaning vazifani anglashi, maqsad qo'yishi va strategiya tanlashi.

2. Amalga oshirish – strategiyalarni qo'llash va jarayonni kuzatish.

3. O'z-o'zini tahlil qilish – natijani baholash va yondashuvni takomillashtirish.

Bu sikl akmeologik yondashuvning mohiyatiga to'liq mos keladi: ta'lim va rivojlanish jarayoni bir yoki bir nechta topshiriq bilan tugamaydi – talaba doimiy ravishda o'zi va fani haqida bilim olib, faoliyatni qayta ko'rib chiqadi.


Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar tadqiqotchilik kompetensiyasini takomillashtirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish uchun ishni qanday bosqichlarda amalga oshirish mumkinligi haqidagi savollarga javob topish lozim. Bunda qaysi pedagogik sharoitlar va mexanizmlar samaradorlikni oshirishi, akmeologik tamoyillar ushbu jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadga muvofiq. Tadqiqot ishimizning mazkur bo'limida aynan shu masalalarga javob topishga qaratilgan zamonaviy pedagogik modelning asosiy bloklari, vazifa va o'zaro aloqalari chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot ishimizda taklif etilayotgan zamonaviy pedagogik model bir nechta asosiy tarkibiy bloklardan iborat bo'lib, ular diagramma shaklida tizimli ravishda ko'rsatilgan (1-rasm). Modelning markazida *maqsadli blok* turadi. Bu blokda talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha aniq strategik maqsadlar belgilanadi. "Maqsadning aniq belgilanishi – ta'lim samaradorligining kalitidir".

Akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan ushbu pedagogik model talabaning ilmiy salohiyatini oshirishga, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantirishga va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada talabalar nafaqat mustaqil ilmiy izlanish olib boradi, balki kasbiy rivojlanishning eng yuqori bosqichlariga intiladi va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqaradi. Shu jihatdan modelning nazariy asoslanishi, amaliy tatbiq etish imkoniyatlari va uzluksiz takomillashuv tamoyiliga tayanishi uning ta'lim jarayonida dolzarbligini va barqarorligini isbotlaydi.

---

<sup>7</sup> Zimmerman, Barry J. Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory into practice, 2002. 41. – P. 64–70.




**1-rasm. Akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik modeli**

“Bolalar folklori” fanini o‘qitish jarayonida talabalar nafaqat bolalar og‘zaki ijodiy merosining xilma-xil namunalari bilan tanishadilar, balki ularni yig‘ish, tizimlashtirish, tahlil qilish kabi izlanish faoliyatiga jalb etiladilar. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, Urganch davlat universiteti tajribasida talabalar o‘z hududlaridagi bolalar o‘yinlari, ertaklar, topishmoqlar, qo‘shiqlar kabi og‘zaki ijod namunalari yozib olish, ularni ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish bilan shug‘ullanadilar. Shu tariqa ularda folklor materiallarini to‘plash va tahlil qilishga doir malaka hosil bo‘ladi.

Akmeologik yondashuvning didaktik asoslari – bu talabanning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlash, uning ichki motivatsiyasini uyg‘otish, mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga yo‘naltirish, o‘z-o‘zini baholash va rivojlanish monitoringini amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash kabi tizimli faoliyatlardan iboratdir (2-rasm).

Adabiyotlarda bu kompetensiya ko‘pincha “ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi”, “ilmiy tafakkur kompetensiyasi”, “izlanish kompetensiyasi”

tushunchalari bilan bog'lanadi<sup>8</sup>. Jumladan, B.J. Zimmerman talabning tadqiqotchilik kompetensiyasini o'z-o'zini boshqarish va refleksiya mexanizmlari bilan bog'lab tushuntiradi. J.A.Moon esa tadqiqotchilik kompetensiyasi shakllanishida tajribaviy o'qitish va reflektiv o'qitishning alohida o'rnini ta'kidlaydi<sup>9</sup>. A.A. Derkach akmeologik yondashuv asosida talabning tadqiqotga bo'lgan motivatsiyasi, tashabbuskorligi va o'z imkoniyatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga alohida urg'u qaratadi<sup>10</sup>.



2-rasm. Akmeologik yondashuvning didaktik asoslari

Tadqiqotchilik kompetensiyasi ko'pincha quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

**Izlanish ko'nikmalari (searching skills)** – mustaqil axborot izlash, ma'lumot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy yondashuv.

**Tahlil qilish ko'nikmalari (analytical skills)** – to'plangan ma'lumotni tartiblash, strukturaviy tahlil va kontseptual umumlashtirish.

**Dalil keltirish ko'nikmalari (argumentative skills)** – ilmiy dalillarni asoslash, tasdiqlash, manbalarga tayangan holda fikrni himoya qilish.

**Mustaqil xulosa chiqarish (conclusive skills)** – tahlil asosida yangi g'oya yoki xulosa shakllantirish, natijalarni baholash va ularni prezentatsiya qilish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik modelni amaliyotga samarali joriy etish uchun mustahkam metodik va texnologik asos talab etiladi. Bu esa innovatsion ta'lim texnologiyalaridan maqsadli va integratsiyalashgan holda foydalanishni taqozo qiladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan akmeologik modelni amaliyotga joriy etish mexanizmlarida asosiy o'rin loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL), kontekstual o'qitish (Context-Based Learning – CBL), reflektiv ta'lim hamda mentorlik tizimi kabi ilg'or metodlarga ajratiladi

**PBL – loyiha asosida o'qitish** talabning mustaqil izlanish, muammo

<sup>8</sup> Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action (1st ed.). – Routledge, 1992. <https://doi.org/10.4324/9781315237473>. – P. 384.

<sup>9</sup> Moon, J.A. A Handbook of Reflective and Experiential Learning: Theory and Practice. – Routledge: Falmer, 2004.

<sup>10</sup> Derkach A.A. Akmeologiya. – M.: RAGS, 2004. – 304 c.

qo'yish, uni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metod talabalarga nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi. Moonning ta'kidlashicha, PBL talabalarni faqat bilim olish bilan chegaralab qo'ymaydi, balki ularni ilmiy dalillarni izlash va xulosalar chiqarishga yo'naltiradi. Masalan, "Bolalar folklori" fanini o'qitishda talabalar mahalliy o'yinlar va og'zaki ijod namunalarini yig'ish, ularni tizimlashtirish va ilmiy tavsiyalar shakllantirish bo'yicha loyiha tayyorlaydi.

**CBL – kontekstual o'qitish** o'quv materialini talabaning hayotiy va kasbiy kontekstiga bog'lab tushuntirishni nazarda tutadi. Bu metod Derkach tomonidan akmeologik yondashuvning amaliy ifodasi sifatida ko'riladi. CBL orqali talaba real hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish, izlanish va argumentatsiya qilishni o'rganadi. Shuningdek, kontekstual o'qitish metodlari fanlararo integratsiyani kuchaytiradi, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlaydi.

**Refleksiv ta'lim** Schön va Moon nazariy qarashlarida chuqur o'rganilgan bo'lib, bu metod talabani o'z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish va kelgusi izlanishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Refleksiya – akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri sifatida talabada chuqur tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. O'qituvchining vazifasi talabani kundaliklar, esse, portfolio va doimiy feedback orqali o'z-o'zini baholashga o'rgatishdir.

**Mentorlik tizimi** esa Klimov va Derkach asarlarida keng tahlil qilingan bo'lib, talabaga individual yo'nalish berish, nazorat va maslahatlar orqali tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishni maqsad qiladi. Mentorlik faqat o'qituvchi bilan talabani emas, balki talabalar o'rtasida ham "peer mentoring" orqali samarali tashkil etilishi mumkin. Bu yondashuvda talabalar o'zaro tajriba almashadi, bir-birini baholaydi va motivatsiya uyg'otadi.

Akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik modelning amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etilishi innovatsion metodlarni to'g'ri tanlash va moslashtirishga bevosita bog'liqdir. PBL, CBL, refleksiya va mentorlik tizimi talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantiradi, ularni mustaqil izlanishga, chuqur tahlilga, dalil keltirishga va mustaqil xulosa chiqarishga tayyorlaydi. Bu esa bugungi ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**Akmeologik yondashuv asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining samaradorligi**" deb nomlangan bo'lib, unda tajriba-sinov ishini rejalashtirish va tashkil qilishda tadqiqot maqsadi, vazifalari va faraz qilingan yondashuvlarga mosligini inobatga olgan holda tamoyillari, bosqichlari, kutilayotgan natijalarni baholash vositalari hamda diagnostika qilish mezon va ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Tajriba-sinov ishlari Urganch davlat pedagogika instituti, Alfraganus universiteti va Nukus davlat pedagogika institutida olib borildi. Respondentlar sifatida 408 nafar talaba qamrab olindi.

Tajriba-sinov ishlarining markaziy g'oyasi – talabani shaxsiy va kasbiy

rivojlanishning “eng yuqori cho‘qqilari”ga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb qilishdir. Bu yondashuv shaxsning intellektual, ijodiy va tadqiqotchilik salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, maqsadli va reflektiv harakatlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Tajriba-sinov ishlarining samarali amalga oshirilishi quyidagi amaliy mexanizmlar orqali ta‘minlanadi:

1. **Shaxsiylashtirish.** Talabalar o‘z qiziqishlariga mos mavzularni tanlaydi, bu esa motivatsiyani oshiradi va faoliyatning individual xususiyatini ta‘minlaydi.

2. **Refleksiya.** Talabalar qisqa esse va oraliq hisobotlar orqali o‘z faoliyatini tahlil qiladi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda shaxsiy rivojlanish rejalarini shakllantiradi.

3. **Hamkorlik.** Peer-review sessiyalari va kichik seminarlar orqali talabalar o‘zaro baholash, konstruktiv fikr almashish va ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. **Natijaga yo‘naltirish.** Mini-konferensiya va taqdimotlar orqali tadqiqot natijalarini ommaga taqdim etish, ilmiy kommunikatsiya va prezentatsiya ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi komponentlar talabalar faoliyatini tizimli shakllantirishdasamarali ekani aniqlandi:

**Muammoli-loyiha topshiriqlari:** talabalar mustaqil ravishda izlanish olib boradi, ma‘lumotlarni tahlil qiladi, dalillarni asoslab xulosalar chiqaradi.

**Portfel:** izlanishlar va daliliy materiallar tizimli hujjatlashtiriladi, bu esa o‘z-o‘zini baholash va faoliyatni monitoring qilish imkonini beradi.

**Refleksiya:** talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqadi va kelajakdagi strategiyasini belgilaydi.

**Peer-review:** talabalar bir-birining ishlarini konstruktiv tarzda tahlil qiladi, dalillash madaniyati va ilmiy etikani rivojlantiradi.

Tajriba-sinov jarayonining samaradorligini aniqlash va talabalar tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlanishini baholashda diagnostik-baholash tizimi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizim talabaning izlanish faoliyati, tahliliy yondashuvi, dalillash qobiliyati va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini kompleks tarzda o‘lchashga mo‘ljallangan. Diagnostik-baholash tizimi quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

*Izlanish:* talaba muammoni aniqlash va mavzu bo‘yicha ma‘lumot to‘plash jarayonida faol ishtirok etadi.

*Tahlil:* toplangan ma‘lumotlarni sinchkovlik bilan tahlil qiladi, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi.

*Dalillash:* o‘z xulosalarini isbotlash uchun ilmiy asoslar va manbalardan foydalangan holda argumentlar keltiradi.

*Mustaqil xulosa:* talaba o‘z natijalarini umumlashtiradi va mustaqil, asosli xulosalar chiqaradi.

Diagnostik-baholash tizimining samaradorligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. *Jarayon va mahsulot.* Talabaning ishlash jarayoni va yakuniy natijasi birgalikda baholanadi. Bu yondashuv talabaning faqat tayyor mahsulotga emas, balki ijodiy va tadqiqotchilik jarayonidagi faolligiga ham e'tibor qaratadi.

2. *O'sish dinamikasi.* Baholash talabaning pre-testdan post-testgacha bo'lgan rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon beradi. Bu individual o'sishni monitoring qilish va pedagogik strategiyalarni moslashtirishga xizmat qiladi.

Tizimda ko'plab baholash vositalari qo'llaniladi:

Testlar va analitik rubrikalar talabalar bilimini va ko'nikmalarini tizimli baholash imkonini beradi.

Portfel chek-listlari tadqiqot faoliyatini va hujjatlashtirilgan natijalarni kuzatishga yordamlashadi.

Reflektiv esse shkalasi va peer-review formasi talabaning reflektiv fikrlash qobiliyati va konstruktiv baholash ko'nikmalarini o'lchashga xizmat qiladi.

Talabalar faoliyati quyidagi to'rt darajaga ajratilgan:

**Past (1):** minimal faoliyat va natija;

**O'rta (2):** qoniqarli darajadagi faoliyat;


**Yaxshi (3):** mustahkam va samarali faoliyat;

**Yuqori (4):** yuqori darajadagi izlanish, tahlil va mustaqil xulosa ko'rsatadi.

Baholash natijalari ikki tomonlama yondashuv orqali tahlil qilinadi:

